

PARKINSON KASALLIGINING KELIB CHIQISHI VA TASHXISLANISHI

Tajiyeva Oyimjon Ataxanovna

Xorazm viloyati Xonqa tumani Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi.

Tel: +99899 966 46 76.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118270>

Annotatsiya. Ushbu tezisda parkinson kasalligi va uning kelib chiqishi, yosh toifasi, kasallikda yuz beradigan simptomlar va kasallikning tashxislanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Parkinson, markaziy nerv sistemasi, Jan Marten, tserebrovaskulyar buzilishlar, depressiya, KT, MRI, B vitamin.

ORIGIN AND DIAGNOSIS OF PARKINSON'S DISEASE

Abstract. This thesis presents information about Parkinson's disease and its origin, age group, symptoms and diagnosis of the disease.

Key words: Parkinson's, central nervous system, Jean Marten, cerebrovascular disorders, depression, CT, MRI, vitamin B.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ДИАГНОСТИКА БОЛЕЗНИ ПАРКИНСОНА

Аннотация. В диссертационной работе представлены сведения о болезни Паркинсона и ее происхождении, возрастной группе, симптомах и диагностике заболевания.

Ключевые слова: болезнь Паркинсона, центральная нервная система, Жан Мартен, цереброваскулярные нарушения, депрессия, КТ, МРТ, витамин В.

Kirish

Hozirgi kunda dunyo bo'ylab ko'plab insonlarda Parkinson o'tgan asrdagiga nisbatan ko'proq qayd etilayotganligi hech kimga sir emas. Parkinson kasalligi dunyo bo'ylab har 1000 kishidan 1–3 nafarida (0, 1–0, 3 foiz) uchraydi va sayyoramiz aholisining har to'rt yuz aholisi bu kasallikdan aziyat chekadi. Hattoki kasallik bilan og'riyotgan bemorlarning yosh o'rtaligi ham kichraymoqda. Avvallari asosan pensionerlar xavf guruhi ostida turgan bo'lsa, hozirda o'ttiz besh—qirq yoshdagilarda ham uchramoqda. O'zbekistonda ham bu kasallik bilan og'riyan talaygina bemorlar topiladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra ularning soni ham ortmoqda. Shu o'rinda turli xil savollar tug'iladi. Bu qanday kasallik o'zi? Kasallikning davosi bormi? Bu kasallik

bilan og'rikan bemorlar sog'ayib ketadimi? Dastavval kasallik haqida to'xtalib o'tsak, u qachon va qayerda paydo bo'lgan? Va aynan nimaga Parkinson deb nomlanadi?

Parkinson-inson markaziy nerv sistemasi bilan bog'liq bo'lgan eng xavfli kasalliklardan biri hisoblanadi. Bu kasallik bilan og'rikan bemorlarda titroq, falaj kuzatiladi va dengeneratsiya hisobiga kuchayib boradi. titroj, falaj dastlab qo'l panjalarining harakatlarida sezila boshlaydi va sekin-sekin, bemorning bosh va oyoqlari ham titraydi. Parkinson kasalligida markaziy nerv sistemasi bilan bog'liq bo'lgan harakatlar: yurish(bemor mayda qadamlar bilan yuradi), yuz harakatlari (mimikalar) muskullar tinch holatda ham qaltiroq kuchayib, muskullar tortisha boshlaydi, bemor hayajonlansa bu kuchayadi aksincha harakatda paytida kamayadi. Parkinson markaziy asab tizimiga ta'sir qilganligi bois, mushaklarda atrofiya va postural buzilishlar ham kuzatiladi.

Asosiy qism

Bu kasallik dastlab miloddan avvalgi II asrda Qadimgi Rimda qayd etilgan. O'sha davrning mashhur shifokori Galen bu kasallikni tasvirlab alomatlari haqida yozib qoldirgan. Bundan keyingi izlanishlar XVII asrga to'g'ri keladi. Gollandiyalik shifokor F. Silvius kasallikka mos keladigan silkinish turlarini, nemis olimi G. Leronimus esa kasal odamning yurish xususiyatlarini tasvirlashgan. Bu kasal bilan og'rikan odamning batafsil tasvirini esa H. Jon beradi.

1817-yilda anglyalik shifokor Jeyms Parkinson "Titroq falajlik" nomli asarida bu kasalikka chalingan olti kishi haqida yozadi. Eng ajablanarlisi, bular orasida shifokorning o'zi ham bor edi.

U bu kasallikka chalinganida ellik yoshdan oshgan edi. U o'zida kechayotgan o'zgarishlarni doimo yon daftarchasiga qayd etib boradi. O'zidagi va kuzatuvdagi bemorlarda kechayotgan ushbu kasalikka "Titroq falajlik" deb nom beradi chunki barcha bemorlarda bir xil xolatlar: qo'llarning titrashi, mushaklarning qotishi, yurishning sekinlashuvi va odam harakatlarining sustlashishi kuzatiladi. Biroq shifokorning ishi qariyb qirq yil e'tiborga olinmaydi.

Shifokorning ishini bir qancha yevropalik mashhur nevrologlar o'rganadilar va alohida kasallik sifatida qaralishiga katta xissa qo'shishgan. U 1874yili mashhur faransuz nevrologi Jan Marten kasallikni chuqur o'rganib nomini o'zgartiradi va kasallikni boshidan o'tkazgan va bu haqida yozib qoldirgan shifokor Parkinson nomini berishni taklif qiladi, shu sababdan ham kasallik aynan uning nomi bilan tarixda qoldi.

Bu kasallikning tarixi va tabiatini o'rganish hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kasallik ko'proq pensionerlar guruhida uchraydi, ayollarga qaraganda erkaklar ko'proq bu kasalikka chalinadilar. Kasallikning ilk belgilari va keltirib chiqaruvchi sabablari sifatida quyidagilar keltirib o'tiladi.

Eng birinchi nasliy omillarga urg'u beriladi. Chunki kasalikka moyillik avlodan-avlodga o'tadi degan ehtimollar yuqori. To'g'ri farzandlar to'g'ridan-to'g'ri bu kasallik bilan og'rimaydi lekin ularda uchrashi yuqori darajada bo'lish ehtimollari kuzatiladi. Bu kasalikka moyillik deyilganda l-tiroksingidroksilaza fermentining tug'ma yetishmovchiligi tushuniladi.

Bundan tashqari, bosh miya jarohatlari, tserebrovaskulyar buzilishlar, dorilarning organizmga qilgan nojo'ya ta'siri va qoldirgan asoratlari, neyrotrop viruslar, turli intoksikayalar, ichkilikbozlik, giyohvandlik ham sabab bo'lishi mumkin. Bular sabablar sifatida qaralsa ham, ilk alomatlariga befarq qarab bo'lmaydi. Kasallikdagi ilk alomatlar esa ixtiyoriy harakatlar buzilishi(gipokineziya-harakatlar sustlashishi, oligokineziya-harakatlarning kamligi, akineziya-harakatlarning yo'qligi), mushaklar rigidligi va tinch holatdagi tremordir.

Shuningdek bemorda nutq buzilishi, (gapirayotganida monoton holatda gapirishi va gapining oxiriga borib ton tamoman tushib ketishi va so'zlarning yo'qolishi bilan belgilanadi), yozish buzilishi(bunday holatda esa bemor dastlab harflarni yirik-yirik qilib yozib so'zlar ko'paygani sari harflar maydalashib boradi yoki so'zlar ichidagi harflar tushib qolishi kuzatiladi), ruhiy-hissiy va kognitiv buzilishlar(bu holatlar barcha bemorlarda turlicha kuzatiladi masalan ayrim bemorlar judayam ezma, hadeb bir gapni takrorlaydigan, yig'loqi, arazchi bo'lib qolsa, ayrimlari esa aksincha odamovi, indamas bo'lib qolishadi).

Depressiya, qo'rquv, xavotir juda ham ortib ketadi. Bemorlar parishonxotir xolatda bo'ladi va xotiradagi buzilishlar, diqqat qila olmaslik tez-tez uchrab turadi), tos a'zolari funktsiyasi buzilishi (qovuq sohasidagi mushaklar sustligi hisobiga siyishga bo'lgan ehtiyojning ortishi yoki siydik tuta olmaslik holatlari ham kuzatiladi) kabi holatlar ham uchraydi.

Xulosa

Bu kasalikni ilk alomatlarini paydo bo'lganda unga to'g'ri tashxis qo'yish va sifatli davolanish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo nevrapatolog bemorni tekshirib ko'rishi va ixtiyoriy harakatlar buzilishi holatini aniqlashi zarur.

Parallel tarzda elektromiyografiya(bu tremorning tabiati va boshqa mushaklardagi patologiyalarni istisno qilish uchun mo'ljallangan ilki majburiy diagnostic usul), elektroansefalografiya(bunda esa miya faoliyatidagi buzilishlar aniqlanadi), KT(kompyuter tomografiyasi-tananing batafsil ichki tasvirlari olinadi), MRI(magnit rezonans tomografiya miyaning po'stlog'ini va yumshoq to'qimalar shikastlanishini ko'rsatadi)qilinishi kerak.

Kasallikning oldini olish uchun va ehtimolini kamaytirish uchun bemor doimo prafilaktika choralarini amalga oshirishi zarur. Rejimli ovqatlanish ya'ni vaqtida va B vitamini mavjud(jigar, tuxum, baliq, ismaloq, dengiz mahsulotlari, yong'oq) ovqatlardan tanavvul qilish, mevalar (olma,

sitrus mevalar, shuningdek papaya), sutli mahsulotlar iste'mol qilishi, stress va depressiyani kamaytirishga harakat qilishi, zararli odatlardan voz kechishi zarur.

REFERENCES

1. Obidov, M., Isagaliev, M., Abdukhakimova, K., & Madalova, M. (2021, August). COEFFICIENT BIOLOGICAL ABSORPTION OF HEAVY METALS IN MEDICINAL PLANTS: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1339>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES
2. Исағалиев, М. Т. Турдалиев, А. Т. & Обидов, М. В. (2021). Доривор ўсимликлар биогеохимёси. Ўзбекистон замини, Ж. Тошкент.
3. Mak MK, Vong-Yu IS, Shen X va boshqalar. Parkinson kasalligi bo'lgan odamlarda jismoniy mashqlar va jismoniy terapiyaning uzoq muddatli ta'siri. *Nat Rev Neurol* 2017.
4. Jenner P. Parkinson kasalligining keyingi bosqichlarini davolash-farmakologik yondashuvlar hozir va kelajakda. *Transl Neurodegener* 2015.